



LUG‘ATLARNING SHAKLLANISH TARIXI BORASIDA MULOHAZALAR

Xushboqova Jahona

Termiz davlat universiteti

Lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi leksikografiyaning tadqiq manbasi hisoblangan lug‘atlar va ularning shakllanish tarixi yuzasidan mulohazalar tahlilga tortilgan. Lug‘atlar tarixini ilmiy nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali ularning bugungacha yetib kelishida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar: o‘xshashlik va farqli xususiyatlarni o‘rganish uchun imkoniyat yaratiladi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, lingvistik tahlil, o‘xshashlik va farqli xususiyatlar, lug‘atlar tarixi, tarixiy taraqqiyot.

Abstract: This thesis analyzes the reflections on the history of dictionaries and their formation, which are considered the research source of lexicography. By analyzing the history of dictionaries from a scientific point of view, an opportunity is created to study the changes that have occurred in their development to the present day: similarities and differences.

Keywords: lexicography, linguistic analysis, similarities and differences, history of dictionaries, historical development.

Абстракт: В диссертации анализируются словари, которые считаются источником исследований в области лексикографии, а также соображения об



истории их формирования. Анализ истории словарей с научной точки зрения дает возможность изучить изменения, произошедшие в их развитии до наших дней: сходства и различия.

Ключевые слова: лексикография, лингвистический анализ, сходства и различия, история словарей, историческое развитие.

Barchamizga ma'lumki, tilning lug'at sathini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi leksikografiya deb nomlanadi. Ushbu so'zning etimologik ma'nosi “lexicos” – so'z, “graphos” – chizaman demakdir. Tildagi foydalaniladigan barcha so'zlar lug'at sathini tashkil qiladi. Lug'atlarning paydo bo'lishi ham o'ziga xos rivojlanish bosqichiga ega bo'lib, ushbu tarixiy taraqqiyot davomida lug'atlar struktur jihatdan rivojlandi, o'zgardi. Ushbu tezisda ham bevosita tilning rivojlanish bosqichida lug'atlarning tarixiy holati va ularning bugungi kundagi lug'atlar bilan qiyosiy ifodasi borasida mulohazalar bildirildi.

Bugungi kunda yaratilayotgan lug'atlar tarjima, tanlangan so'zlikni izohlash maqsadida yaratilsa, qadimda yaratilgan lug'atlarda ham lug'atlar yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad bir tildan boshqa tilga tarjimalarni amalga oshirish yoki so'zlarning izohini keltirish hisoblangan. Dastlabki yaratilgan lug'atlar ikki yoki undan ortiq tillarni qamrab olib, ko'plab til yoki dialektlar o'rtasidagi tarjimani amalga oshirishda foydalanilgan. Umuman olganda, ilk lug'atlar qamrovi cheklangan bo'lib, asosiy tematik mavzular tibbiyot, botanika, ilohiyot hisoblangan.

Ba'zi lug'atlarda esa so'zlarning etimologik tarixi xususida ham ma'lumotlar keltirilgan, ular tildagi mavjud leksemalarning tarixiy taraqqiyotidan dalolat beruvchi ifodalar hisoblanadi. Tarixiy davrlarda yaratilgan lug'atlar zamonaviy lug'atlar kabi alifbo tartibida joylashtirilgan. Qadimgi lug'atlarda so'zliklarga mos ta'riflar keltirilgan bo'lsa-da, ulardagi asosiy diqqat so'zning barcha ma'nolarini qamrab olmay, bosh so'z ma'nosini



ifoda etishga qaratilgan¹. Ayrim tarixiy lugʻatlarda soʻzlarning maʼnosini yanada ochiqroq qayd etish uchun misol sifatida kontekstlar keltirilgan. Shartli qisqartmalar, maxsus belgilar ham joyni tejash yoki maʼlumotlarni yetkazishda samaradorlikni taʼminlash maqsadida foydalanilgan. Bu lingvistik xususiyatlar davr oʻtishi bilan rivojlanib, bugungi koʻrinishdagi zamonaviy lugʻatlar paydo boʻlishi uchun zamin yaratdi.

Lugʻatlarning ilk namunalari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi hamda ularning yaratilishi turli hududlarda amalga oshirilgan. Ilk ikki tilli lugʻatlar miloddan avvalgi 2300-yillarda yashagan shumerlar davriga toʻgʻri kelib, ular tomonidan yaratilgan lugʻat xitoycha lugʻatlardir. Ingliz tilidagi birinchi sof alifbo lugʻati A Table Alphabeticall deb nomlanib, 1604-yilda shakllantirilgan.

Lugʻatlar tadqiqi esa bora-bora ushbu soha tadqiqi bilan shugʻullanuvchi leksikografiya deb ataluvchi sohaning yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Bu yoʻnalish asoschilaridan biri sifatida XX asrda yashagan Ladislav Zgusta nomi tilga olinadi.

Fanga maʼlum boʻlgan eng tarixiy lugʻatlardan yana biri qadimgi Ebla hududida miloddan avvalgi 2300-yilda topilgan, Akkad imperiyasiga oid ikki tilli akkad-shumer tillariga oid soʻzliklarni aks ettiruvchi mixxat lavhlari edi. Urra-hubullu lugʻati esa shumer tilidagi mavjud lugʻatning bobil tilidagi versiyasi hisoblanadi. Shijoupin lugʻati ham xitoy lugʻati sifatida eʼtirof etiladi, uning yaratilish davri sifatida miloddan avvalgi 700-200-yillar tilga olinadi – biroq ushbu soʻzlik jamlanmasining lugʻat ekanligiga shubha bilan qarovchilar ham yoʻq emas: zamonaviy olimlar tomonidan uning Chjou sulolasi davriga oid boʻlgan xitoy belgilarining umumiy toʻplami sifatida eʼtirof etiladi².

Miloddan avvalgi IV asrda yashab oʻtgan Koslik Filita tomonidan quyidagi birliklar toʻplanib, “Dorderly Words” deya atalgan:

- a) Homer tiliga oid adabiy soʻzlar;
- b) mahalliy shevalar;

¹ Bergenholtz Henning. Manual of Specialised Lexicography: The Preparation of Specialised Dictionaries, J. Benjamins. ISBN 978-90-272-1612-0

² www.chinalexology.com



c) texnik terminlar.

Shuningdek, Homer asarlari leksikasi Sofist Appoloniya tomonidan to'plangan³. Dastlabki Sanskrit lug'ati esa Amarakosa Amarasimha tomonidan qayd etilgan – ushbu lug'at 10000 ga yaqin so'zni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Ilk yaponcha lug'at milodiy 682-yilda topilgan bo'lib, u Niina deb nomlangan hamda u xitoycha belgilardan tashkil topgan, qiziqarli tomoni shundaki, ushbu lug'at uzoq muddat davomida topilmagan.

Arab tilshunosligida ham lug'atshunoslik borasida qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ilk lug'at sifatida VIII asrda yaratilgan Al-Xalil ibn Ahmad al-Farohidiyning “**Kitob al-ayn**” lug'ati e'tirof etiladi. Shuningdek, qoraxoniylar davrida yashagan olim, turkiy lug'at asoschisi Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asari turkiy tillar tarixini o'rganishda yetakchi manba sifatida e'tirof etiladi. Bu asarda mavjud so'zliklar soni 8000 ta deya qayd etiladi. Xorazm hukmdori Otsizga bag'ishlab Az-Zamaxshariy tomonidan yozilgan “Muqaddimat ul-arab” asari ham kichik arabcha lug'at hisoblanadi. “Kitobul idrok li-lisanil-atrok” asari esa Abu Hayyon al-Andalusiy tomonidan Misrda yaratilgan bo'lib, Misr va Shom mamlakatlarida so'zlashuvchi qipchoq va turkman tillari haqidagi lug'at kitobi yaratilgan.

Umuman olganda, lug'atchilik tarixiga nazar solsak, xilma-xil yaratilgan lug'at turlariga guvoh bo'lamiz. Ularning o'ziga xos tarixini o'rganish esa bugungi kundagi zamonaviy lug'atlarning taraqqiyoti, asosini tadqiq etishda o'ziga xos manba sifatida xizmat qiladi.

³ Atkins B. The Oxford Guide to Practical Lexicography, Oxford U.P. ISBN 978-0-19-927771-1



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atkins B. The Oxford Guide to Practical Lexicography, Oxford U.P. ISBN 978-0-19-927771-1
2. Béjoint H. Modern Lexicography: An Introduction, Oxford U.P. ISBN 978-0-19-829951-6
3. Bergenholtz H. Lexicography at a Crossroads: Dictionaries and Encyclopedias Today, Lexicographical Tools Tomorrow. Peter Lang 2009. ISBN 978-3-03911-799-4
4. Bergenholtz Henning. Manual of Specialised Lexicography: The Preparation of Specialised Dictionaries, J. Benjamins. ISBN 978-90-272-1612-0
5. Considine J. The Cambridge World History of Lexicography. Cambridge University Press. ISBN 9781107178861
6. Green J. Chasing the Sun: Dictionary-Makers and the Dictionaries They Made, J. Cape. ISBN 0-7126-6216-2
7. Hartmann R. Dictionary of Lexicography, Routledge. ISBN 978-0-415-14144-4
8. Hartmann R. Lexicography: Critical Concepts, Routledge/Taylor & Francis, 3 volumes. ISBN 978-0-415-25365-9
9. Hartmann R. Teaching and Researching Lexicography, Pearson Education. ISBN 978-0-582-36977-1
10. www.chinalexichology.com